

Sur'at va ritm



Musiqi baland yoki past tovushda yangrashi, turlicha kayfiyat berishi, shuningdek, tez yoki sekin ijro etilishi mumkinligini bilib oldingiz.

Musiqadagi tezlik **sur'at** deb ataladi.

Sur'at musiqaning qanchalik tez yoki sekin yangrashini bildiradi. Agar sur'at tez bo'lsa, yugurish, raqsga tushish va xursandchilik qilish istagi paydo bo'ladi. Aksincha, sekin bo'lsa, bunday musiqi tinchlantiradi va bo'shashtiradi.



14

Alla qo'shig'ini tinglang.

*Ibrohim Jivanov so'zi,
Pavel Uporov musiqasi*



- Alla qo'shig'ining sur'ati qanday?
- Bunday musiqi insonni nimaga chorlaydi?
- U qanday kayfiyat ulashadi?



15

Andijon polkasini tinglang.



- Ushbu raqs sur'ati qanday?
- Bunday musiqi insonni nimaga chorlaydi?
- Bu musiqi qanday kayfiyat ulashadi?



Ritm – qisqa va uzun tovushlar hamda ular orasidagi pauzalarning tartib bilan yangrashi.

Ritm marshdagi qadamlar kabi ravon va bir maromda yoki qo'shiq kuyi kabi notekis bo'lishi mumkin.



Ismingizni qarsak chalish orqali ritmga soling.

Ma-di-na



Videoni tomosha qiling va Madina bilan birgalikda ritmli o'yinni o'ynang.



Qarsak va taqir-tuqur tovushlar yordamida o'z ritmli o'yiningizni o'ylab toping. Musiqiy cholg'ularsiz qiziqarli ritm yaratishga urinib ko'ring.

